



## INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK SURDOPEDAGOGLARNI KASBIY TAYYORLASH

Xayitov Lazizbek Rustamjon o'g'li,

Qo'qon davlat universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

<https://orcid.org/0009-0001-6290-8562>

[bek896234@gmail.com](mailto:bek896234@gmail.com)

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1736>

### MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

**Qabul qilindi:** 16-iyun 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 18-iyun 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-C

**Maqola raqami:** 24

### KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

integrativ yondashuv, surdopedagogika, kasbiy tayyorlash, eshitish buzilishi, maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, pedagogik kompetentlik, interdisciplinar yondashuv, amaliy ko'nikmalar

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy tayyorlashda integrativ yondashuvning ahamiyati va samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim tizimida eshitish buzilishi bo'lgan bolalar sonining ortishi va ularning ta'lim ehtiyojlarining murakkablashuvi surdopedagoglarni tayyorlashda yangi yondashuvlar qo'llash zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Integrativ yondashuv turli fanlar va amaliy sohalaridagi bilimlarni birlashtirish orqali keng qamrovli kasbiy kompetentlikni shakllantirishga imkon beradi. Shuningdek maqolada pedagogik, psixologik va tibbiy fanlardagi nazariy asoslar tahlil qilingan, xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganilgan, shuningdek, amaliy kuzatishlar va ekspert baholashlar o'tkazilgan. Integrativ yondashuv surdopedagoglarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv bo'lajak mutaxassislarning inklyuziv ta'lim muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorligini ta'minlaydi. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarda integrativ yondashuv bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy shakllanishida ta'lim mazmunini takomillashtirishning samarali omili sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv asosida talabalarda maxsus pedagogik bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, eshitishda cheklovi bo'lgan bolalarning individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish hamda korreksion-pedagogik faoliyatni rejalashtirish ko'nikmalari rivojlanadi. Integrativ tayyorgarlik jarayoni bo'lajak mutaxassislarni faqat ma'lum bir fan doirasidagi bilimlar bilan emas, balki kompleks kasbiy kompetensiyalar bilan ta'minlashga yo'naltiriladi. Shuningdek, maqolada surdopedagoglarni tayyorlashda zamonaviy ta'lim texnologiyalari, raqamli vositalar va inklyuziv ta'lim tamoyillaridan foydalanish imkoniyatlari yoritiladi.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 16 June 2026

**Approved:** 18 June 2026

**Volume:** 18-C

**Paper number:** 24

### KEYWORDS

integrative approach, surdopedagogy, professional training, hearing impairment, special education, inclusive education, pedagogical competence, interdisciplinary approach, practical skills

### ANNOTATION

This article aims to determine the importance and effectiveness of an integrative approach in the professional training of future sign language teachers. The increase in the number of children with hearing impairments in the modern education system and the complexity of their educational needs necessitate the use of new approaches in the training of sign language teachers. An integrative approach allows the formation of comprehensive professional competence by combining knowledge from various disciplines and practical areas. The article also analyzes the theoretical foundations of pedagogical, psychological and medical sciences, studies foreign and domestic experience, as well as conducts practical observations and expert assessments. An integrative approach allows for the strengthening of theoretical knowledge of sign language teachers, the development of practical skills and the ability to use modern technologies. This approach ensures the readiness of future specialists to effectively operate in an inclusive educational environment. In this field of research, the integrative approach is considered an effective factor in improving the content of professional training of future deaf education teachers. This approach develops students' ability to apply special pedagogical knowledge in practical situations, consider the individual developmental characteristics of children with hearing impairments, and organize correctional and educational activities effectively. The process of integrative training is aimed at providing future specialists not only with knowledge within individual disciplines but also with comprehensive professional competencies. The article also highlights the possibilities of using modern educational technologies, digital tools, and inclusive education principles in the preparation of future surdopedagogues.

**Kirish.** Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv turli bilim sohalarini birlashtirish va kompleks yondashuvni ta'minlash orqali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Integrativ yondashuv surdopedagogik ta'limda nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni uyg'unlashtiradi. Bu yondashuv psixologiya, pedagogika, tibbiyot, lingvistik va texnologiya sohalarining yutuqlarini birlashtirib, keng qamrovli ta'lim dasturini yaratadi.

Surdopedagoglarni tayyorlashda bir necha muhim yo'nalish mavjud. Birinchidan, eshitish buzilishi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlarini chuqur o'rganish zarur. Ikkinchidan, maxsus metodikalar va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari shakllantiriladi. Uchinchidan, oilalar bilan ishlash va ijtimoiy adaptatsiya masalalari o'rganiladi.

Hozirgi kunda digital texnologiyalar surdopedagogikada katta rol o'ynaydi. Eshitish apparatlari, koklear implantlar va maxsus dasturiy ta'minot bilan ishlash ko'nikmalari bo'lajak mutaxassislar uchun zarurdir. Shuningdek, vizual-kommunikativ vositalar va multimedia materiallardan samarali foydalanish qobiliyati shakllantiriladi. Nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish uchun uzluksiz amaliy mashg'ulotlar va

stajirovkalar tashkil etiladi. Maxsus maktablar, rehabilitatsiya markazlari va oilaviy muhitda ishlash tajribasi orttiriladi. Bu jarayon bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Surdopedagoglarni boshqa mutaxassislar - audiologlar, logopedlar, psixologlar va ijtimoiy ishchilar bilan hamkorlikda ishlashlari kerak. Shuning uchun kasbiy tayyorlash jarayonida jamoaviy ishlash ko'nikmalari va boshqa sohalar bilan integratsiya qobiliyati rivojlantiriladi.

Zamonaviy yondashuv bo'yicha surdopedagoglarni inklyuziv ta'lim muhitida ishlashga tayyorlanishlari kerak. Bu eshitish buzilishi bo'lgan bolalarni umumta'lim maktablariga moslashtirishni va ularning to'liq potentsialini ro'yobga chiqarishni ta'minlaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Bo'lajak surdopedagoglarni integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash masalasi zamonaviy pedagogika fanida alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etayotgan yo'nalishlardan biridir. Ushbu muammo bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda mutaxassis tayyorlash jarayonini faqatgina maxsus bilimlarni egallash bilan chegaralamasdan, balki turli fanlararo bilimlar, amaliy faoliyat tajribasi hamda shaxsiy-kasbiy sifatlarini shakllantirishga yo'naltirish zarurligi ta'kidlanadi.

Integrativ yondashuvning metodologik asoslarini o'rganishda turli

pedagogik va falsafiy qarashlarga murojaat qilish mumkin. Xususan, P.V. Kopnin ilmiy bilish jarayonining nazariy asoslarini yoritib, bilimlarni tizimlashtirish va turli ilmiy yo'nalishlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muhimligini ko'rsatadi. Muallifning fikricha, ilmiy bilimlarning rivojlanishi alohida tushunchalar yig'indisi emas, balki ularning o'zaro aloqasi va yaxlit tizim sifatida shakllanishi bilan belgilanadi [12, 568-b.]. Bu g'oya bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida pedagogika, psixologiya, tibbiyot, lingvistika va maxsus metodikalarni o'zaro bog'lash zaruratini asoslaydi.

Integratsiya tushunchasining pedagogik mazmunini ochishda fanlararo aloqalar muhim o'rin egallaydi. M.S. Anisimov va A. Tursunov ilmiy fanlarning integratsiyalashuv jarayonlarini tahlil qilib, zamonaviy fan taraqqiyotida turli sohalarining o'zaro ta'siri yangi ilmiy yondashuvlarning shakllanishiga olib kelishini qayd etganlar [7, 57-67 b.]. Ushbu fikr maxsus pedagogik ta'limda ham o'z aksini topib, surdopedagogik shaxsini shakllantirishda turli fanlar mazmunini uyg'unlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Kasbiy tayyorgarlik masalasida N.A. Muslimovning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Muallif pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash va bo'lajak mutaxassisning mustaqil kasbiy qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish zarurligini asoslaydi [11, 315-b.]. Mazkur yondashuv surdopedagoglar tayyorlash jarayoniga tatbiq etilganda, talabalarda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashga oid maxsus bilimlar bilan bir qatorda, kommunikativ, korreksion va texnologik kompetensiyalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Kasbiy mukammallikka erishish jarayoni N.V. Kuxarev tomonidan ham keng yoritilgan. Tadqiqotchi mutaxassisning professional rivojlanishi uzluksiz jarayon ekanligini, unda bilim, tajriba va shaxsiy sifatlarning uyg'un rivojlanishi muhimligini ta'kidlaydi [9, 159-b.]. Bu fikr bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy shakllanishida ham muhim bo'lib, ular zamonaviy inklyuziv ta'lim sharoitida doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirib borishi zarurligini ko'rsatadi.

S.L. Rubinshteynning shaxs va faoliyat nazariyasiga oid qarashlari ham integrativ yondashuvning psixologik asoslarini tushinishda muhim manba hisoblanadi. Muallif tafakkur jarayonini inson faoliyati bilan bog'liq holda tushuntirib, bilimlarni amaliy faoliyat jarayonida o'zlashtirish va qo'llash masalasiga katta e'tibor qaratadi [4, 147-b.]. Mazkur nazariya surdopedagoglarni tayyorlashda amaliy mashg'ulotlar, pedagogik kuzatuvlar va real ta'lim muhitidagi faoliyatning ahamiyatini belgilaydi.

Integrativ yondashuvning ta'lim mazmunidagi o'rinni aniqlashda o'quv fanlarining funksional imkoniyatlarini o'rganish muhimdir. P. Musaev o'quv fanlarini integratsiyalash masalalarini tahlil qilib, fanlar o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlik ta'lim samaradorligini oshirishini qayd etadi [10, 34-37 b.]. Bu yondashuv asosida surdopedagogik ta'limda maxsus pedagogika, psixologiya, anatomiya, fiziologiya, nutq rivoji va kommunikativ metodikalarni yagona tizim sifatida tashkil etish mumkin.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ta'limning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi jihatlarini ham muhim hisoblanadi. O.M. Dyachenko va V.V. Xolmovskaya ta'lim jarayonida bolaning shaxsiy rivojlanishi, bilish faoliyati va ijtimoiy tajribasini shakllantirish masalalarini yoritganlar [5, 64-b.]. Ushbu qarashlar surdopedagoglarning nafaqat ta'lim beruvchi, balki eshitishda cheklavi bo'lgan bolalarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashuvchi mutaxassis sifatidagi rolini belgilaydi.

Zamonaviy inklyuziv ta'lim tamoyillari xalqaro hujjatlarda ham o'z ifodasini topgan. Incheon deklaratsiyasida barcha insonlar uchun sifati, teng va inklyuziv ta'limni ta'minlash masalalari ilgari surilgan bo'lib, bunda pedagoglarning yangi kompetensiyalarini shakllantirish zarurligi qayd etiladi [6]. Mazkur yondashuv surdopedagoglarni tayyorlash jarayonida individual yondashuv, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlash metodlari va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishni talab qiladi.

Integrativ ta'limning mazmuniy jihatlarini O.A. Kozyreva ishlarida ham o'z aksini topgan. Muallif pedagogik faoliyatni nazorat qilish, baholash va metodik jihatdan tashkil etish masalalariga e'tibor qaratib, bo'lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligida amaliy vazifalar bilan ishlash tajribasini rivojlantirish muhimligini ko'rsatadi [1]. Ushbu qarashlar surdopedagogik faoliyatda diagnostika, korreksion mashg'ulotlarni rejalashtirish va ta'lim natijalarini baholash jarayonlarini ahamiyatlidir.

O'zbek pedagogik tafakkurida ham shaxs kamoloti, ta'lim va tarbiya jarayonlarining uyg'unligi muhim masala sifatida qaraladi. "Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati"da jamiyat taraqqiyoti, insonning bilim va ma'naviy rivojlanishi bilan bog'liq tushunchalar yoritilib, ta'limning shaxs shakllanishidagi o'rni ko'rsatib berilgan [2, 279-b.]. Bu qarashlar zamonaviy pedagog tayyorlashda insonparvarlik va shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyatini belgilaydi.

K. Marksning faoliyat va inson rivojlanishi haqidagi qarashlari ham

kasbiy tayyorgarlik jarayonining ijtimoiy mohiyatini tushinishda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Muallif insonning shakllanishida mehnat faoliyati, tajriba va ijtimoiy munosabatlarning rolini ochib beradi [3]. Mazkur fikr bo'lajak surdopedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorlanishida amaliy tajriba va ijtimoiy muhit bilan bog'liq faoliyatning zarurligini ko'rsatadi.

O'rganilgan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak surdopedagoglarni integrativ yondashuv asosida tayyorlash jarayoni ko'p qirrali pedagogik tizim hisoblanadi. Unda nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kasbiy motivatsiya, kommunikativ qobiliyatlar va shaxsiy sifatlari o'zaro bog'liq holda rivojlanadi. Ilmiy adabiyotlarda ilgari surilgan g'oyalar asosida integrativ yondashuv surdopedagoglarning zamonaviy ta'lim talablariga mos, raqobatbardosh va yuqori kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis sifatida shakllanishini ta'minlovchi samarali vosita ekanligini ko'rish mumkin.

**Metodologiya.** Mazkur maqolada bo'lajak surdopedagoglarni integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash jarayonining ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini yoritishda tizimli, integrativ va kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologik asosini pedagogika, psixologiya, maxsus pedagogika hamda surdopedagogika sohalaridagi ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy manbalarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish hamda ekspert baholash metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, surdopedagoglarni tayyorlash mazmunida turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlik, nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

Integrativ yondashuv asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik shartlari, o'quv jarayonida fanlararo aloqalarni ta'minlash mexanizmlari va bo'lajak mutaxassislarning inklyuziv ta'lim muhitida faoliyat yuritishga tayyorgarligi o'rganildi. Mazkur metodologik asoslar surdopedagoglarni kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashning ilmiy asoslarini belgilashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalari.** Integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash surdopedagoglarning zamonaviy talablarga javob beradigan, yuqori malakali mutaxassislar sifatida shakllanishini ta'minlaydi va eshitish buzilishi bo'lgan bolalarning ta'lim va rivojlanish jarayonida samarali yordam ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy tayyorlashning didaktik tizimi tamoyillarini asoslash uchun oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi kasbiy faoliyatining o'ziga xosligini va o'qitish jarayoni strukturasi ob'ektiv xususiyatlarini aniqlash zarur. Ular quyidagicha:

1. O'qitishning yaxlit jarayoni uning vaqt bo'yicha taqsimotining bosqichi bilan umumlashadi. Maxsus pedagogika surdopedagogika yo'nalishi talabasi o'qitish jarayoni har bir bosqichini tahlil qilishni bilishi shart. O'quv bilish jarayonining uzluksizligi va bosqichlari o'rtasidagi ziddiyatlilik o'qitishning integratsiyalovchi omili hisoblanadi.

2. Talabani o'qitish jarayonining mazmunli tomoni boshlang'ich ta'lim bosqichining mohiyatini aks ettiruvchi, tuzilmaviy ko'p predmetlilik bilan tavsiflanadi. Fundamental nazariy ko'p predmetli tayyorlash zarurati o'qitish jarayonining cheklangan doiralari bilan ziddiyatli hisoblanadi. Rivojlantiruvchi o'qitish g'oyasi insonning yangi ma'lumotni mustaqil izlash va o'zlashtirish qobiliyati ham o'z ichiga kirituvchi intellektual rivojlanish vazifasini birinchi o'ringa qo'yadi. Asosiy urg'u kasbiy faoliyat uchun yetarli bo'lgan o'quv ma'lumotini eslab qolishdan uni chuqur tushunishga, bu ma'lumotni amaliyotda ijodiy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga ko'chiradi.

4. Nazariyaning o'quv modeli sifatida har bir o'quv fani o'zining mantiqiy-tuzilmaviy asosiga ega (mantiqiy-tuzilmaviy asosi – fanning nazariy asosi tamoyillarining ifodalanishidir). Mantiqiy-tuzilmaviy asosga asosan o'quv fanini vaqt bo'yicha taqsimoti sodir bo'ladi. Masalan, tilshunoslik va biologiyani qurish tamoyillarida ahamiyatli farqlar o'qitish jarayonidagi ob'ektiv ziddiyatlarni aniqlaydi.

5. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni yaxlit o'qitish jarayonining dunyoqarashga oid xususiyati ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni tayyorlash jarayoni – bu ko'p qatlamli ta'lim, uning hamma komponentlari o'zaro bog'langan va o'zaro bir-birini keltirib chiqaradi, bo'lajak pedagogda ularning birortasining yo'qligi mutaxassis shaxsining tuzilmasida nomutanosiblikni albatta keltirib chiqaradi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish ularda kasbiy kompetensiyalarning rivojlanishiga bilan bog'liq. O'z navbatida kasbiy kompetensiyalar qo'yadigicha o'zaro bog'liq:

kasbiy faoliyatda vazifalarni bajarish va tipik(oddiy) muammoli vaziyatlarni hal qilishda malaka talablarini amalga oshirish uchun zarur

bo'lgan kasbiy bilimlar, ko'nikmalar va umumlashirilgan harakat usullari majmui bilan;

subyektning tajribaga ega ekanligini aytish imkonini beruvchi kasbiy faoliyat sohasidagi texnik topshiriqlar bilan;

shaxsning kasbiy sohadagi muvaffaqiyatli faoliyatini belgilovchi shakllangan shaxsiy fazilatlarining rivojlangan tizimi bilan.

Shunday qilib, ilmiy ishlarni tahlil qilib, tadqiqot uchun muhim bo'lgan birinchi oraliq xulosalarga kelamiz:

1) zamonaviy jahon ta'lim muxitida «ta'lim» atamasi juda keng ma'noda - fuqaro, kasbiy, ijodiy shaxsni shakllantirish maqsadida shaxsni tayyorlash, tarbiyalash va rivojlantirish tizimi sifatida talqin etiladi; bu «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida ham tabiiy ravishda o'z ifodasini topdi;

2) ta'lim jarayoni tadqiqotchilar tomonidan ta'lim, tarbiya va shaxs kamoloti uchligidan kelib chiqqan holda davlat tomonidan rejalashtirilgan ta'lim natijalariga erishishga qaratilgan oliy ta'lim muassasasi faoliyatining asosi sifatida e'tirof etilishi;

3) oliy ta'lim muassasasida kasbiy tayyorgarlik jarayonining mohiyati quyidagilar bilan bog'liq bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat:

kasbiy muammolarni texnologik jihatdan tashkillashtirilgan hal qilishga tayyorlik bilan (muammoni tushunish, ma'lumotni tanlash, uni tahlil qilish, harakatlarni rejalashtirish, resurslarni jalb qilish, olingan natijalarni to'g'ri baholash va paydo bo'lgan muammolar bilan bog'liq holda o'z harakatlarini tezda tuzatish);

hal etilayotgan kasbiy vazifalarga muvofiq mazmunli va maqsadli harakat qilish, mavjud resurs asosida ularni hal qilishning yagona to'g'ri, maqbul yo'lini tanlash qobiliyati bilan;

o'qish davomida to'plangan, zarur bo'lgan va malakaviy talablarni sifatli bajarishga yordam beradigan konstruktiv tajribani amalga oshirish qobiliyati bilan;

bitiruvchi tomonidan qabul qilingan rivojlanish qadriyatlarini bilan, umrbod ta'lim, kasbiy o'zini o'zi tarbiyalash, meyorlar va kasbiy xulq-atvorni qabul qilish va boshqalar.

Oliy ta'lim tizimini isloh qilish, chuqur ijtimoiy inqiroz, ishlab chiqarishning xususiy tarmoqlarining kengayishi, globallashishga moyillik va zamonaviy sharoitda ishbilarmonlik muhiti talabalarining kasbiy kompetentligiga yangi talab va mezonlarni ilgari surdi. Kasbiy motivatsiya muammosi, birinchi navbatda, zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan ta'lim va ijtimoiy o'zgarishlarni zamonaviylashtirish jarayonida javob oladi. Ko'rsatilgan dalillar zamonaviy pedagogi doimiy kasbiy rivojlanishga, o'sishga, o'z faoliyati mobaynida malaka va ko'nikmalarini amalga oshirishga chorlaydi, zamonaviy mehnat bozorining oddiy bo'lmagan sharoitida raqobatbardoshlik kafolati hisoblanadi.

Psixologik-pedagogik adabiyotda kasbiy motivatsiya turlicha talqin qilinadi:

motivlar ierarxiyasi nazariyasiga ko'ra, kasbiy faoliyat, kasbiy o'z-o'zini anglash, kasbiy rivojlantirishga undovchi ehtiyojlar, qiziqishlar majmui va kasbiy amalga oshirish sifatida;

shaxs va professionalizm rivojlanishining ichki omili sifatida uning yuqori darajada shakllanishi asosida shaxs madaniyati va ma'lumotining samarali rivojlanish ehtimolini mutaxassis shaxsiyatining rivojlanishiga mosligi;

talabning samarali o'quv faoliyatiga, uning ayrim komponentlarini optimallashtirishga kasbiy tayyorgarlik jarayonida kognitiv yoki tushunish faoliyatiga muvaffaqiyatli moslashishga ta'sir qiluvchi omillar singari talaba orientatsiyasiga mosligi;

faoliyat nazariyasining shaxs va professionalizm rivojlanishining ichki harakatlantiruvchi omillariga mosligi.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, kasbiy rivojlanish - bu kasbiy bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtirish jarayoni, uning muvaffaqiyatli yakunlanishi ma'lum kasb, mutaxassislik doirasida murakkabroq ishlarni bajarishga imkon beradi. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy kompetentligini rivojlantirishning huquqiy asoslari «Ta'lim to'g'risida» gi Qonun va boshqa meyoriy hujjatlar bilan belgilanadi. Ularning qoidalari ijro etuvchi hokimiyatlarning meyoriy-huquqiy hujjatlari, birinchi navbatda, respublika hukumatining qarorlari bilan aniqlanadi. Ularga muvofiq, oliy ta'limning maqsadlari bo'lajak mutaxassislarni kasbiy va umumiy ta'lim darajasini izchil rivojlantirish, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Talabalarining kasbiy tayyorgarliklarini mutaxassislik fanlari, turli kasbiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan uchrashuvlar, davra suhbatlari, tadbirlar, mahorat darslari, tajribali pedagoglar faoliyatini o'rganish va boshqa ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish asosida ham rivojlantirish mumkin. Bunda asosiy kasbiy-metodik ma'lumotga ega bo'lmagan talabalarining amaliy tayyorgarlikdan o'tishi uchun sharoit yaratiladi. Shu sababli, kasbiy tayyorgarlik - bu ma'lum bir faoliyat sohasida muayyan ishni, topshiriqlar

guruhini bajarish uchun zarur bo'lgan amaliy bilim, ko'nikma, malakalarni tizimli egallash jarayoni. Zamonaviy oliy ta'limning hozirgi rivojlanish bosqichi, davlat va nodavlat oliy o'quv yurtlarida talabalarni kasbiy tayyorlash jarayoni uning tashkil etilishiga, mazmuni va metodikasiga sifat jihatidan yangi talablar qo'yadi va uning samaradorligini oshirishning zamonaviy yondashuvlarini taklif etadi. Oliy ta'lim sohasidagi konstruktiv va real harakat strategiyasi mamlakat va jahonning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy rivojlanishining uzoq muddatli istiqbollarini hisobga olgan holda kasbiy ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishga asoslangan bo'lishi kerak. Talabalarining kasbiy kompetentligining tarixiy va pedagogik tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi tizimiga o'tish davri an'anaviy kasbiy shakllarning stereotiplaridan voz kechish jarayoni bilan kechadi. Psixologik-pedagogik hodisa sifatida talabalar tanlagan kasbning yangi qiyofasi oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni kasbiy tayyorlash jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Oliy ta'limda talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlari ta'limning tashkil etilishi, mazmuni va uslubiga munosabatini belgilaydi. Shu bilan birga, oliy ta'lim siyosatini rivojlantirish, bu borada davlatning mas'uliyati va faol rolini tiklash, universitetlarda o'quv jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish uchun ilmiy-amaliy dasturlardan keng qamrovli foydalanish tizimini yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Demak, kasbiy tayyorgarlik - ma'lum bir faoliyat sohasidagi vazifani bajarishda samara beradigan maxsus bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Ba'zi adabiyotlarda qayt etilishida kasbiy tayyorgarlik - bu ma'lum bir ishni, vazifalar guruhini bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatish jarayoni. Kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish esa - bu asosiy va tegishli kasb, mutaxassislik bo'yicha yangi va qo'shimcha bilimlarni egallash jarayonidir.

**Muhokama.** Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni tayyorgarlik jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tayyorgarlik, xuddi faoliyatning boshqa har qanday turi kabi, ko'p komponentli tizim bo'lib, o'zining tuzilmasiga, shakliga, tashkil qilish usullariga ega ekanligini hisobga olish zarur.

«Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni tayyorgarlik jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tayyorgarlik, xuddi faoliyatning boshqa har qanday turi kabi, ko'p komponentli tizim bo'lib, o'zining tuzilmasiga, shakliga, tashkil qilish usullariga ega ekanligini hisobga olish zarur. Fanlarning integrativ asoslarini chuqur o'rganish egallangan ma'lumotni kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan vazifalarni hal etish uchun qo'llash qobiliyati bilan mujassamlanishi kerak. Bu faqatgina alohida fanlarga doir integrativ bilimlarni jamlash asosida yuzaga kelmaydi. Integrativ yondashuv fan mohiyati to'g'risidagi bilimni uni ijodiy o'zgartirish usullarini bilish bilan bog'laydi. Integrativ yondashuv avvalgi bilim sintezi uchun sharoitlar yaratadi. Integrativ yondashuvning muhim funksiyasi amaliyotning tartibga soluvchi vazifasi, konstruktiv tamoyil vazifasi hisoblanadi.

Bo'lajak surdopedagoglarni integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash masalasi zamonaviy maxsus ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki eshitishda cheklovi bo'lgan bolalar bilan ishlash jarayoni faqatgina maxsus pedagogik bilimlar bilan chegaralanmaydi, balki psixologik, tibbiy, lingvistik va ijtimoiy yo'nalishlardagi bilimlarning uyg'unlashuvini talab etadi. Shu sababli surdopedagog tayyorlash jarayonida turli fanlar mazmunini o'zaro bog'lash va ularni amaliy faoliyat bilan birlashtirish muhim pedagogik shartlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan kasbiy tayyorgarlik jarayoni talabalarda alohida fanlar doirasidagi bilimlarni oddiy o'zlashtirishdan ko'ra, ularni kasbiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini shakllantirishga yo'naltiriladi. Surdopedagog uchun bolaning eshitish holati, nutq rivojlanishi, psixologik xususiyatlari, ijtimoiy moslashuvi va ta'lim ehtiyojlarini bir butun tizim sifatida tushunish zarur. Bunday yaxlit yondashuv mutaxassisning kasbiy fikrlashini rivojlantiradi va murakkab pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish imkoniyatini oshiradi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida integratsiya pedagogik va maxsus metodik fanlarning mazmuniy bog'liqligini ta'minlash bilan birga, amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini ham oshiradi. Xususan, talabalar maxsus ta'lim muassasalari, inklyuziv sinflar va rehabilitatsiya markazlarida amaliy tajriba orttirish orqali nazariy bilimlarini mustahkamlaydi. Bu esa ularda bolalar bilan individual ishlash, korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Bugungi kunda surdopedagog faoliyatida raqamli texnologiyalar va innovatsion vositalardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Eshitish apparatlari, audiologik vositalar, multimedia materiallari va vizual kommunikatsiya usullaridan foydalanish bo'lajak mutaxassislarning texnologik kompetentligini shakllantirishni talab qiladi. Integrativ

yondashuv aynan shu jarayonda turli bilim va ko'nikmalarni yagona kasbiy tizimga birlashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, surdopedagoglarni tayyorlashda hamkorlikka asoslangan faoliyat muhim o'rin tutadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishida pedagog, psixolog, shifokor, logoped va ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik samarali natijalarga olib keladi. Shu bois oliy ta'lim jarayonida bo'lajak surdopedagoglarda jamoada ishlash, turli mutaxassislar bilan muloqot qilish va kompleks yordam ko'rsatish kompetensiyalarini rivojlantirish zarur.

Integrativ yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, u talabani tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki mustaqil izlanadigan, kasbiy muammolarni hal qila oladigan ijodkor mutaxassis sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda talabalarning mustaqil fikrlashi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi va individual yondashuv asosida metodlarni tanlay olish qobiliyatlarini rivojlanadi.

Shunday qilib, bo'lajak surdopedagoglarni integrativ yondashuv asosida tayyorlash jarayoni kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv nazariy bilimlar, amaliy tajriba va shaxsiy-kasbiy sifatlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlab, zamonaviy inklyuziv ta'lim talablariga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

**Xulosa.** Bo'lajak surdopedagoglarni integrativ yondashuv asosida kasbiy tayyorlash zamonaviy maxsus pedagogika tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni mutaxassislarni faqat nazariy bilimlar bilan qurollantirish emas, balki ularning amaliy faoliyatga tayyorgarligini, mustaqil fikrlashini va kasbiy vaziyatlarda samarali faoliyat yuritish olish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv surdopedagogik ta'lim mazmunida pedagogika, psixologiya, tibbiyot, lingvistik, maxsus metodika va zamonaviy texnologiyalarni o'zaro bog'lash imkonini beradi. Bunday uyg'unlik

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Козырева О.А. Контрольно-измерительный материал курса «Методика воспитательной работы» учебно-методическое пособие для студентов-бачлавров направления подготовки «050100 – Педагогическое образование», профиль – «Физическая культура» / Новокузнецк, 2013 г.
2. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'ati. (A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahriri ostida). – T: Sharq. – 1998, B. 279
3. Marks K. Vvedenie (iz ekonomicheskix rukopisey 1857-1858 godov) // Marks K., Engels F. Soch. – T. 12.
4. Rubinshteyn S.L. O myshlenii i putyax yego issledovaniya. -M.: Izd-vo AN SSSR, 1958. -147 s.
5. Obrazovatel'naya rabota v detskom sadu po programme «Razvitie» / Pod red. O.M. Dyachenko, V.V. Xolmovskoy. - M.: Novaya shkola, 1996. - 64 s.
6. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
7. Анисимов М.С., Турсунов А. Современные тенденции интеграции наук // Вопросы философии. - 1981. - № 3. - С. 57-67.

bo'lajak mutaxassislarga eshitishida cheklovi bo'lgan bolalarning rivojlanish xususiyatlarini chuqur tushunish, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Kasbiy tayyorgarlik jarayonida integrativ yondashuvdan foydalanish talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki surdopedagog faoliyati murakkab pedagogik vaziyatlarni hal etish, turli mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, korreksion-rivojlantiruvchi metodlarni tanlash va zamonaviy vositalardan foydalanishni talab qiladi. Shu sababli oliy ta'lim jarayonida fanlararo aloqalarni mustahkamlash va amaliy tayyorgarlikka keng imkoniyat yaratish zarur.

Integrativ tayyorgarlik bo'lajak surdopedagoglarda kasbiy motivatsiya, mas'uliyat, kommunikativ madaniyat va pedagogik mahoratni rivojlantiradi. Mazkur jarayon talabalarning o'z kasbiga nisbatan ongli munosabatini shakllantirib, ularni doimiy ravishda o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga yo'naltiradi.

Shuningdek, inklyuziv ta'limning rivojlanishi sharoitida surdopedagoglarning yangi kasbiy vazifalarga tayyorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv asosida tayyorlangan mutaxassislar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, ularning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash va shaxsiy rivojlanishiga yordam berishda muhim o'rin egallaydi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak surdopedagoglarni kasbiy tayyorlash ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlovchi, nazariy bilim va amaliy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur yondashuv asosida shakllangan mutaxassislar zamonaviy maxsus va inklyuziv ta'lim talablariga mos keladigan, yuqori kasbiy salohiyatga ega pedagoglar sifatida faoliyat olib borish imkoniyatiga ega bo'ladi.

8. Avazov Sh.M. Ismatov I.Sh. "Qishloq xujaligi va atrof – muhit" fakultativ kursidan o'quv dasturi (qishloq mak. yuqori sinflari uchun). T.: UZPFITI, 2001. -13 b.

9. Кухарев Н. В. На пути к профессиональному совершенству. - M.: Просвещение, 1990. - 159 с.

10. Musaev P. O'quv fanlarining funksional vazifasi va ularni integratsiyalash masalalari. DTS asosidagi o'quv dasturlari: muammolar, izlanishlar, yechimlar // Seminar materiallari, XTV ning ilmiy maqolalar to'p. – Tashkent: 2002. – B. 34-37.

11. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy metodik asoslari. Diss. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007. – 315 b

12. Копнин П. В. Основы теоретико-познавательных и логических наук. -M.: Мысль, 1974. -568 с.

13. Asqarov, D., Abdullaev, H., Yanova, E., Axmedov, M., Safarov, T., Samiyeva, G., ... & Kabilov, K. (2026). Proactive Educational Frameworks for Early Diversion and Learning Support to Prevent Criminal Justice Involvement for Vulnerable Youth. *Journal of Intellectual Disabilities and Offending Behaviour*, 17(1), 46-56.